



QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH VA ISH O‘RINLARINI KO‘PAYTIRISH CHORALARI MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-yanvar kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ishlar tahlili va kelgusi vazifalar muhokamasi bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Davlatimiz tomonidan Qoraqalpog‘iston iqtisodiyotini ko‘tarishga, odamlarning turmush sifatini yaxshilashga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. So‘nggi yetti yilda hududda misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar ro‘y berdi. Avvallari 15 ta tumandan 12 tasi dotatsiyada bo‘lgan Qoraqalpog‘iston bugungi kunga kelib, o‘z daromadiga ega hududga aylandi. Xususan, 15 trillion so‘m investitsiya hisobiga 5 ming 300 dan ziyod loyiha amalga oshirildi. Orol dengizining qurigan hududi o‘rnida 1 million 800 ming gektar yashil o‘rmonzor barpo etildi. 51 ming oilaning uy-joy sharoiti yaxshilandi, 401 ta mahallada qurilish-ta‘mirlash ishlari bajarildi. Aholining turmush darajasi oshdi.

Qoraqalpog‘istonda biznes yuritish uchun boshqa hech bir hududga berilgan imtiyozu imkoniyatlar taqdim etilgan. Xususan, jozibador biznes muhiti va hudud aholisiga qo‘shimcha qulaylik yaratish maqsadida foyda, aylanmadan soliq, yer va mol-mulk soliqlari 2 baravar pasaytirilgan, ijtimoiy soliq 1 foiz qilib belgilangan. Natijada tadbirkorlar ixtiyorida yiliga 500 milliard so‘m qolmoqda.

Bu ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida so‘nggi ikki yilda Qoraqalpog‘istonda sanoat, qishloq xo‘jaligi va tadbirkorlikni rivojlantirish, mahallalar infratuzilmasini yaxshilashga doir 7 ta farmon va qaror qabul qilindi. Bu maqsadlar uchun 400 million AQSH dollari va 250 milliard so‘m ajratildi.

Iqtisodiyot tarmoqlari va viloyatlar bilan hamkorlikda Orolbo‘yining shahar va tumanlarida ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda.

Yig‘ilishda 2023-yilda qilingan ishlar ko‘rib chiqilib, 2024-yilga mo‘ljallangan vazifalar muhokama qilindi.

Bugungi kunda Qoraqalpog‘iston aholisi 2 million nafardan oshdi. Har yili mehnat bozoriga 50 ming aholi kirib keladi. Davlatimiz rahbari ularni zamonaviy kasb-hunarlariga o‘qitib, daromadli ish va munosib yashash sharoitlari bilan ta‘minlash kerakligiga e‘tibor qaratdi.

Shu maqsadda joriy yilda ham keng ko‘lamli ishlar ko‘zda tutilgan. Xususan, sanoat hajmi 23 trillion so‘mga yetkazilib, 2 trillion so‘mlik yangi quvvatlar yaratiladi. To‘qimachilik, elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari tarmoqlarida 5 trillion so‘mlik 24 ta yirik loyiha ishga tushiriladi.

2024-yilda hududga 2 milliard 100 million dollar xorijiy investitsiya jalb etilishi mo‘ljallangan. Buning evaziga sanoatda 206 ta, xizmat ko‘rsatish sohasida 240 ta, qishloq xo‘jaligida 34 ta investitsiya loyihasi

amalga oshiriladi. Ularda 13 mingga yaqin yuqori daromadli ish o‘rni ochiladi.

Qoraqalpog‘istonda ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, turizm va boshqa xizmatlar izchil rivojlanmoqda. Imkoniyatlardan samarali foydalanib, joriy yilda eksport hajmini 160 million dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Qishloq xo‘jaligida yer unumdorligini oshirish uchun xorijiy grant jalb qilinadi. 6 ming gektar yerga suv tejovchi texnologiya joriy qilinib, 31 ming gektar lazerli tekislanadi.

Mahallalar infratuzilmasi va xonadonlar ta‘mirlanadi. Yuqori texnologik tibbiy xizmatga muhtoj bemorlarning davolanishiga 2,3 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

Shu bilan birga, fuqarolar tashabbusi asosidagi loyihalarga 182 milliard so‘m, yil davomida mahalliy byudjetdan yana 40 milliard so‘m ajratiladi. Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlari doirasidagi loyihalarga 10 trillion so‘m beriladi.

Prezidentimiz yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha rejalar mavjud salohiyatga mos emasligini ta‘kidlab, bu boradagi qo‘shimcha imkoniyatlarni ko‘rsatib o‘tdi.

Masalan, 51 ta sanoat zonasida 775 milliard so‘mlik 71 ta loyihani boshlab, 1 mingga ish o‘rni yaratasa bo‘ladi. Yoki 10 ming gektar bo‘sh yerni savdoga chiqarib, 20 mingga tadbirkorni jalb qilish mumkin. Bu 50 ming ish o‘rni, degani. Shuningdek, noruda konlarga sanoatni olib kirib, 7,5 trillion so‘mlik loyihalar hisobiga 10 ming aholini band qilish mumkin.

Davlatimiz rahbari bu boradagi katta imkoniyatlardan biri turizm ekanini ta‘kidladi. Qoraqalpog‘istonda turizmni, ayniqsa, uning eko, etno, ziyorat yo‘nalishlarini rivojlantirish bo‘yicha dastur ishlab chiqish, turizm klasteri tashkil etish va sohaga xorijiy ekspertlarni jalb qilish yuzasidan topshiriq berildi. Nukus aeroportini rivojlantirish va aviaqatnovlarni ko‘paytirish, yangi mehmonxonalar qurish, muzeylarni modernizatsiya qilish, yo‘l bo‘yi xizmatlarini kengaytirish vazifalari ko‘rsatib o‘tiladi.

Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya va Turkiyadan mutaxassislarni taklif etib, yoshlarni chet tili, axborot texnologiyalari, dizayn, mehmonxona xizmati kabi 17 turdagi zamonaviy kasblarga o‘qitish muhimligi ta‘kidlandi.

Mutasaddilar Qoraqalpog‘istonni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish uchun barcha imkoniyatlar borligini qayd etib, bu boradagi chora-tadbirlarni belgilab oldi.

O‘za

YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILIDA ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 10-yanvar kuni iqtisodiy rivojlanish, samarali boshqaruv va xalqaro hamkorlik masalalari bo‘yicha maslahatchi Suma Chakrabarti bilan amaliy uchrashuv o‘tkazdi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasidagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi va ularning samaradorligini oshirish borasidagi navbatdagi qadamlar ko‘rib chiqildi. Strategiyani yurtimizda Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili deb e‘lon qilingan 2024-yilda

amalga oshirishning amaliy jihatlariga alohida e‘tibor qaratildi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlarni shakllantirish, fan, innovatsiyalar va IT sohasini rivojlantirish, “yashil” va raqamli texnologiyalarni

joriy qilish kabi yo‘nalishlarda ichki xaziralarni yanada samarali ishga solish va xorijiy hamkorlar bilan sheriklikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

O‘za

Xalq va armiya — bir tan-u bir jon!

JANGOVAR SHAYLIK ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik mahsuli

Yangi O‘zbekistonning mudofaa qobiliyati, Qurolli Kuchlarining yuksak jangovar salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, strategik hamda harbiy-texnikaviy va ilmiy kuch-qudrati xalqimizning jipsligi hamda vatanparvarlik ruhida kamol topgani bilan ham bevosita bog‘liq. Shuning uchun yangi O‘zbekistonda bu boradagi islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmog‘da. Masalan, Harakatlar strategiyasida, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlarining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini tubdan yaxshilash, ularning xalq bilan muloqotini ta‘minlash, xavfsizlik, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va o‘zaro manfaatli konstruktiv ruhdagi muloqot hamda samarali ijtimoiy hamkorlik mexanizmini mustahkamlashga e‘tibor qaratilgan. Bu, o‘z navbatida, yosh avlodni ona Vatanga fidoyilik va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.



Davomi 3-betda

2024-yil – Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili



YANGI TASHABBUSLAR VA DADIL QADAMLAR

davr yoshlarining hayotida aks etayotir

Yoshlik — g‘oya va tashabbuslarga to‘la, yangi qadamlarni boshlashga, tajribalardan qo‘rqmaslikka undovchi, yaratish va bunyodkorlikka chorlovchi palla. Yurtimiz yoshlari bugun har sohada yetakchilikka harakat qilayotir. Qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar barchamizni quvontirayotgani, ularga havas qilayotganimiz ham bor gap. Mamlakatimizda yoshlarning o‘qishi, hunar o‘rganishi, ijod qilishi, qo‘yingki, o‘z ustida ishlashi uchun imkoniyatlar eshigi keng ochilgani, davlatimizning qo‘llab-quvvatlayotgani ham bu borada ularga katta ko‘makdir.

Davomi 5-betda

BIZNING SUHBAT

O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI qanday rivojlanmoqda?

Sug‘urta iqtisodiyot barqarorligi hamda aholi ijtimoiy himoyasining muhim shartidir. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va barqarorligini ta‘minlashda uning ahamiyati yuqori. O‘zbekistonda ham sug‘urta sohasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bugungi kunga kelib, bu borada ko‘rsatilayotgan xizmatlar ko‘lami sezilarli darajada rivojlandi. Sohada o‘zgarishlar, oldinga siljishlar kuzatilyapti. Qabul qilingan hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosi soha ravnaqiga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizdagi yirik sug‘urta tashkilotlaridan biri — “O‘zagrosug‘urta” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi Shuhrat RASULOV bilan ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar, tizimdagi yangilik va o‘zgarishlar xususida suhbatlashdik. O‘zimizni qiziqitirgan savollarga javob oldik.



— Shuhrat G‘ayratovich, avvalo, sug‘urta xizmatlarining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati, mamlakatimizda sug‘urta xizmatlari nechog‘liq rivojlanayotgani va buning omillari haqida fikringizni bilmoqchi edik.

—O‘zbekistonda biz hozir foydalanayotgan sug‘urta ko‘rinishi boshqa moliya xizmatlariga nisbatan yangi soha. Sug‘urtaning jamiyatdagi o‘rni u ta‘sir qiladigan sohalar bilan belgilanadi. Mazkur xizmat rivojlanish tarixi davomida kutilmagan moliyaviy yo‘qotishlardan himoya vositasi sifatida shakllandi, o‘zgardi va hozirda sug‘urta inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalariga jadal kirib bormoqda.

Davomi 4-betda



Hayotimni o‘zgartirgan kun



kasalmand ota-onamning bir dardi o‘nta bo‘ladi. Men esa gunohkorday boshimni egib jim yuraverdim. Odamlarning uyida, osh-xonalarda idish-tovoq yuvdim, ammo birim ikki bo‘lmas, buning ustiga ninaning ustida yashaganday qo‘rqib yashardim. Menga qarab, bechora onam to‘kilib ketayotganday tuyulardi. Yillarim shu zayilda o‘tdi. 2023-yilning boshida Xalqobod mahallasidan kelgan faollar meni “Ayollar daftari”ga ro‘yxatga oldi, uy-joyga muhtoj, deya qayd etdi. Hammasi soxta, ko‘zbo‘yamachilik, deb o‘yladim va hat-

Jurnalist xalqi xohlasa, bir sahifalik maqolani bir soatda ko‘ngildagidek yozib tashlashi, ba‘zan uch qog‘ozlik maqolani haftalab ham yoza olmasligi mumkin. Farg‘onalik Hamidaxon bilan suhbatimizdan so‘ng menda ham shunday holat yuz berdi.

Hamidaxon Abdullayeva endigina 31 yoshda. Uning turmushga chiqqanidan keyingi yoshligi va baxtini o‘g‘irlagan ayanchli taqdir,



QAYG‘U VA SHODLIK ORASIDAGI MASOFA

ijara uylarda kechgan mashaqqatli yillari, turmush o‘rtog‘ining og‘ir xastalik tufayli erta vafoti, boshpanasizlikdan xorijga ish izlab ketishi, yo‘liga ko‘z tikib qolgan farzandlarining mungli nigohiyu hech kutilmaganda hayotiga kirib kelgan yangi zamon nafasi qurshovidagi keng imkoniyat va yorug‘ kunlar quvonchi haqida yozishning salmog‘i men uchun og‘ir bo‘ldi. Murakkab taqdir va achchiq qismatni qog‘ozda aks ettirish anchayin qiyin kechdi.

“BOLAM, UYGA QAYT, SEN UCHUN YANGI UY QURILYAPTI”

— O‘z boshpanam bo‘lishini va u yerda oilam bilan bahamjihat yashashni orzu qilganman. Hayotimning deyarli 10 yili ijara uylarda o‘tdi. 2023-yil oxirida Qo‘shstepa tuman hokimligi tashabbusi va yordami bilan chog‘roqqa hovli qurib berildi. Men bu vaqtda xorijda og‘ir mehnat qilib yurgandim. Onam qo‘ng‘iroq qilib, “Bolam, uyga qayt, sen va bolalaring uchun yangi uy qurilyapti”, deganida, to‘g‘risi, ishonmadim. Yurtimga qaytib, yangi va shi-manam hovliga kirib kelar ekanman, bo‘g‘zimga nimadir tiqilib, yig‘lab yubordim. Axir sira kutmagandim, ishonmagandim-da. Yangi yilni ilk bora farzandlarim va yaqinlarim bilan o‘z uyimda kutib oldim. Bu tushimmi, o‘ngimmi, haliyam ishongim kelmaydi. Turmushda va ishdan men kabi qiyinalib qolgan ayollar uchun beminnat yordam berayotgan, ro‘shnolik ulashayotgan, jamiki ezguliklar boshida turgan Prezidentimizning bu g‘amxo‘rligi hayotga bo‘lgan muhabbatimni oshirdi, jamiyatda o‘rnim borligini eslatdi, demak, men baxtliyman.

FAROVON YASHASH KAFOLATI

Har bir ko‘rgulikning ajri bor, degan so‘zlar bejiz aytilmagan. Chindan ham o‘z uyiga ega bo‘lgan inson xotirjam yashaydi, ishida unum, ro‘zg‘orida baraka bo‘ladi. “O‘z uying — o‘lan to‘shaging” degan xalq maqoli ham bejiz aytilmagan. Chog‘roqqa bo‘lsa-da, o‘z uyida erkin yashab, halol rizqini oilasi davrasida huzur bilan baham ko‘rayotganlar, aslida, dunyodagi eng baxtiyor odamlardir. Boshpanasi yo‘q, ijara yashayotgan kishilarning esa yeganida huzur, uyqusida halovat bo‘lmaydi, ichki bezovtalikka yuradi.

— Mamlakatimizda davlat tomonidan xotin-qizlarning yashash sharoitini yaxshilash, uy-joy bilan ta‘minlash, ishsizlarni kasb-hunarga o‘qitish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash borasida qator imkoniyatlar berilmoqdaki, bu ularning tinch va farovon yashashiga muhim bir kafolatdir, — deydi Qo‘shstepa tumani hokimi o‘rinbosari, oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i Maryamxon Yo‘ldosheva. — Prezidentimiz tashabbusi bilan “Ayollar daftari” tashkil etilgani esa, aslida, Hamidaxon kabi ishsiz, boshpanasiz, himoyaga muhtoj ayollarga nurli va yorqin bir yo‘l bo‘ladi. Mahallaning o‘rganishlari va tuman hokimligining sa‘y-harakati bilan Hamida Abdullayeva 2023-yilning boshida “Ayollar daftari”ga kiritildi. Ammo mazkur daftarning mablag‘i sarflanmagan holda, 4-sektor va homiylar yordamida otasi tomorqasidan ajratilgan bir sotixli yerda 65 million so‘mlik mablag‘ evaziga hovli-joy qurilib, Hamidaxon va ikki nafar voyaga yetmagan farzandi uchun topshirildi. Aslida, bu yurtimizda xotin-qizlar uchun yaratilayotgan sharoit imkoniyatlarning bir ko‘rinishi, xolos. Hamidaxonning o‘zga yurtlarda tortgan azo-bi-yu nam, yomg‘irli kunlarda kartoshka-sabzi

terganlari, ayol boshi bilan 40 kilolik qoplarni ko‘tarib, ulkan mashinalarga ortgani, uy olish niyatida bir so‘m bo‘lsa ham jamg‘arib, och-nahor yurganlari haqidagi hikoyalarni tinglar ekanman, ba‘zi bir xorijda ishlayman, deb yengil hayotni kasb qilib olgan qizlarga Hamidaxonning achchiq qismatini uning tilidan, bir so‘z qo‘shmay bayon qilishni ixtiyor etdim...

“BAXTGA CHO‘MDIM, AMMO TO‘YMADIM”

— Bolaligim boshqa bolalarnikidek sho‘x-shodon, o‘yin-kulgu bilan o‘tmagan, — deydi

“Maqolamizni Prezidentimizning
“Agar xalqimiz bizdan
rozi bo‘lishini xohlasak, avvalo,
mo‘tabar onalarimiz,
opa-singillarimiz uchun munosib turmush
sharoiti yaratishimiz kerak. Ona rozi
bo‘lsa, oila rozi bo‘ladi, oila rozi bo‘lsa,
jamiyat rozi bo‘ladi”, degan hayotbaxsh
so‘zlari bilan muxtasar qilishni
ma‘qul ko‘rdik.

Hamidaxon. — Oilada uch farzandimiz. Dadam ertalabdan kechgacha dalada ishlasa-da, juda kam maosh olardi. Onam esa yarim tungacha, ba‘zan tonggacha xira chiroq yog‘dusida kuy-malanib, kir-chirlarimizni yuvar va yamardi. Kunduz kunlari ro‘zg‘or yumushlarini saranjomlab, odamlarning uyiga borib xizmat qilardi. Bolaligimda ham, ulg‘ayib katta bo‘lganimda ham hech qachon ortiqcha pulimiz bo‘lmagan. O‘zimga, ukam va singlimga xohlagan narsani sotib olib berishga qurbimiz yetmagan. O‘tgan kunlarimni eslasam, yuragim o‘rtanib, bag‘rim ezilib ketaveradi. Noliшни yoqtirmayman, lekin boy bo‘lmasak-da, to‘kin yashashni istardim. Maktabni tugatganimdan so‘ng o‘qishni davom ettira olmadim, turmushga chiqsam, baxtli bo‘lib, to‘kin yasharman, degan umidda ota-onamning izmi bilan oila qurdim. Yana moddiy qiyinchiliklar ichida o‘ralashib qoldim. O‘g‘illarim tug‘ilganidan so‘ng oilamizda qu-yosh charaqlab, baxtga cho‘mgandek bo‘ldim, lekin bu baxtga to‘ymadim. Ishlay desak ish, alohida hovli qurib chiqib ketishga mablag‘imiz yo‘q edi. Kattalarning xohishi bilan uydan chiqib ketdik. Na tayinli ishimiz, na boshpanamiz bor. Ijara pulini to‘lashga qurbimiz yetmay qolgani bois, noilojlikdan dalada chayla qurib yashagan kunlarimiz ham ko‘p bo‘ldi. Turmush o‘rtog‘im yozning jaziramasiyu qishning ayozli kunlarida bironylarning uyida ishlardi. 2018-yili og‘ir mehnat tufayli yoki iztirobli o‘ylar iskanjasidanmi jigar sirrozi degan og‘ir dardga chalindi, umri qisqa ekan, hayotdan erta ketdi. Men esa 2 bolam bilan chiqqilab qolaverdim. Erimning ma‘rakalari o‘tgach, qaynota-qaynonamning darvozasi biz uchun mahkam yopildi. Farzandlarimni bag‘rimga bosgancha ota uyimga qaytib keldim.

Xalqimiz “Chiqqan qiz chig‘iriqdan nari”, degan gapni bejiz aytmagan. Ahvolimni ko‘rib, shunday ham zo‘rg‘a kun ko‘rayotgan

to Rossiyaga yo‘lkirani ham qarz olib, ishlash uchun ketdim...

Ha, Hamida ko‘zini yumdiyu ko‘ksiga bir parcha muzni bosib, ishlash uchun o‘zga yurtlarga bosh olib ketdim. O‘zini ota-onasi va farzandlari oldida qanchalik bardam ko‘rsatmasin, vaqt o‘tgan sari yurt sog‘inchi, onasining g‘amgin nigohi, o‘g‘illarining mungli chehrasi bir zum bo‘lsa ham xayolidan ketmadi. Aslida, hayotining deyarli o‘n yilida u yordam so‘rab bormagan idora yo tashkilot qolmagandim...

Chetda pul topaman, uy olaman, degan xomxayollar uning yoshgina boshiga ko‘p savdolar soldi. Biroq bugun uning tolei yorug‘, o‘ziga ishonchi baland. Murg‘ak go‘daklarining “Ayajon, qachon bizning o‘z uyimiz bo‘ladi, qachon yangi uyda yashaymiz?”, degan savollari ortda qoldi. Mamlakatimizda kechayotgan yangilanish va o‘zgarishlarning erkin shabadasini uning ham peshanasiga fayzli boshpana nasib qilgani rost.

CHUMOLINING HAM INI BUZILMASIN

Buvim rahmatli bu maqolni ko‘p eslardir. Men esa bola tasavvurim bilan buning mag‘zini ko‘p ham tushunavermasdim. Aynan shu maqolani yozish jarayonida noilojlik va imkonsizlik so‘zlarning ma‘nosini chuqur angalganday bo‘ldim. Buni boshidan o‘tkazgan odamgina yaxshi biladi va tushunadi. Hamidaxonning ota-onasi ham taqdir hukmi oldida birday ilojsiz va imkonsiz edi. Xorijga ishlashga “ketma” deysha qo‘llarining kaltaligi, ro‘zg‘orda o‘g‘li, kelini va yana boshqa nevaralari ham borligi, “boraver” deyishga ko‘ngillari yo‘l bermasdi. “Qizim, turmushga chiqsa, baxti butun bo‘ladi, bag‘rimizga bir oz bo‘lsa-da, shamol tegadi”, deya ming bitta umid bilan turmushga uzatgan ota-onaning, aslida, bir olam ezu niyatlarini bor edi. Ro‘zg‘orning g‘orini to‘ldirish va uch farzandni kamolga yetkazish uchun ular yillar davomida yelkama-yelka mehnat qilgan. Ammo so‘nggi yillarda Hamidaxonning onasi ham, ukasi ham surunkali kasalliklarni olgach, oilaning tashvishi yanada ko‘payadi. 2023-yil ular uchun omadli keldi. Negaki, “Ayollar daftari”ning uy-joyga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar toifasiga kiritilgan qizlari boshpanali bo‘lgach, ota-ona qaddi bir oz ko‘tarildi.

QISSADAN HISSA

Ha, davlatimiz siyosati Hamida kabi ko‘plab xotin-qizlarning hayotiga yorug‘lik olib kirdi va ertangi kuniga ishonchni mustahkamladi. Bugungi Hamida kechagi jabrdiyda emas. Baxtiyor, hayotidan mamnun. Mahalla faoli Shohista opaning aytishicha, yaqinda katta bir tikuvchilik sexining mohir tikuvchisiga aylanishiga ko‘mak beriladi. Eng asosiysi, u endi o‘z uyiga ega. Farzandlarining kamolini ko‘rib, didyoriga to‘yib, kuch olib yashash o‘zbek ayoli uchun eng olib baxt.

Maqolamizni Prezidentimizning “Agar xalqimiz bizdan rozi bo‘lishini xohlasak, avvalo, mo‘tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoiti yaratishimiz kerak. Ona rozi bo‘lsa, oila rozi bo‘ladi, oila rozi bo‘lsa, jamiyat rozi bo‘ladi”, degan hayotbaxsh so‘zlari bilan muxtasar qilishni ma‘qul ko‘rdik.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Inson qadri uchun

MAHALLA BOSHQARUVIDAGI YETTINCHI VAKIL

Bugun u nima bilan mashg‘ul?

Sariosiyo tumani Sebzor mahallasida yashovchi Hamadon Karimov 25 yoshda. Bolaligida cho‘qqilaridan qishin-yozin qor ketmaydigan purviqor Hisor tog‘larini olisdan kuzatib o‘tirib, beixtiyor birinchi bor tog‘larning suratini chizgandi. Shu-shu tasviriy san‘atga qiziqdi-qoldi. Rassomlik umrining mazmuniga aylandi. Nogironligini ham unutdi, o‘qidi, izlandi. Hozir tasviriy san‘at o‘qituvchisi. Yosh bo‘lsa-da, o‘nlab shogirdlari bor. O‘zidagi bor iqtidor va bilimni o‘quvchilarga o‘rgatishga intiladi. Yonida faqat qo‘ltaqyoqlargina emas, balki musavvirning qalami va boshqa kerakli anjomlar ham bo‘ladi.



Tuman markazidagi Chinor ko‘chasida yashovchi Karim Norqulovni ham qo‘ligul kosib sifatida tanishadi. Nogironligi bor, degani boqimandalik emasligini yaxshi tushunadi. Kasbu kori ortidan bugun mahalla-ko‘y oldida Karimjon usta bo‘lib tanildi. Farzandlarini ulg‘aytirdi.

Ular kabi yurtdoshlarimizni doimiy qo‘llab-quvvatlash, ro‘yxatga olish va e‘tibor ko‘rsatish, reabilitatsiya anjomlari bilan ta‘minlab borish maqsadida birgina so‘nggi uch yilda olib borilgan ishlar sabab mazkur qatlamning hayoti tubdan yaxshilandi. Jumladan, davlatimiz rahbarining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga si-fatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Mazkur hujjat ijrosi doirasida turli vazirliklar tarkibida tarqoq faoliyat yuritayotgan ijtimoiy xizmatlar birlashtirilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi, shuningdek, agentlikning viloyat boshqarmalari, tuman va shaharlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi. Sariosiyoda faoliyat boshlagan “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi tuman bo‘limi

mutaxassislari nogironligi bor fuqarolar-ni yashash sharoitlari va muammolarini o‘rgandi. Xususan, Hamadon Karimov “Inson” ijtimoiy xizmatlar markaziga ish-ga taklif qilindi. Karim Norqulovga elektron nogironlik aravachasi berildi.

— Bilasizmi, rost gap, farzandlarim o‘z yo‘lini topa oldi. Hamadon yuragimning og‘rig‘i edi. Mendan keyin nima bo‘ladi, derdim. Keyingi yillardagi mamlakatdagi o‘zgarish, bunday nogironligi bor yosh-larga e‘tibor, amaliy yordam berilayotgani meni xotirjam qildi. Bolam Hamadonga imtiyoz asosida tahsil olish imkoniyati berildi va undan o‘g‘lim unumli foydalan-di. Jiddiy harakat qilib, tanlovlarda g‘olib bo‘ldi. Juda quvondim, armonim yo‘q, — deydi Hamadonning otasi Amirqul Nazarov.

Tuman miqyosida bu kabi imkoniyati cheklangan, nogironligi bor fuqarolarga ko‘rsatilayotgan e‘tibor va g‘amxo‘rlikka o‘nlab, viloyat miqyosida esa yuzlab mi-sollarni ko‘rsatish mumkin.

Bugungi kunda Surxondaryo viloyatida 14-30 yoshdagi nogironligi bo‘lgan yoshlar 10 ming 575 nafarni tashkil etadi. Shundan, 1185 nafari 1-guruh, 6747 nafari 2-guruh, 251 nafari 3-guruhga mansub

yigit-qizlar. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi hududiy bo‘linmalari tomonidan har bir nogironligi bo‘lgan fuqarolar va yoshlarni qamrab olish ko‘zda tutilmoqda.

2023-yilda Surxondaryo viloyatida og‘ir ijtimoiy holatga tushgan va tushish xavfi bo‘lgan fuqarolar bilan manzilli ish-lashda aholining 31 ta toifasiga individual yondashuv asosida ijtimoiy xizmatlar amalga oshirildi.

Yana bir misol, yakunlangan yil-ni-ning o‘zida mahallalar kesimida ijtimoiy xodim lavozimining ham joriy etilishi yolg‘iz keksa, nogiron va boshqa muhto-jlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish kabi aniq yo‘nalishlarni belgilab berilishida muhim rol o‘ynadi.

Ma‘lumot o‘rinda, Surxondaryo viloyatida mavjud 724 mahallaning barcha-sida ijtimoiy xodimlar o‘z ish faoliyatini mahalla boshqaruvidagi yettinchi vakil sifatida boshladi.

Yana bir gap. Uzun tumanida respub-likada birinchi bo‘lib “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining binosi foydala-nishga topshirildi.

— Faoliyatimiz — har bir xonadon ah-volini o‘rganib, oilalardagi qiaqiyy holatni hamda ularning ijtimoiy xizmatlar va yor-damga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash, oila-larning ijtimoiy pasportlarini shakllanti-rish ishlarini amalga oshirish. Yurtimizda birinchi bo‘lib viloyatning eng chekka tumanlaridan biri Uzunda markaz bino-sining qurilib, foydalanishga topshirilishi bu bo‘yicha ishlarning eng chekka joy-largacha yetib borgan, xodimlar uchun ham sharoitlarning yaratilgani esa yanada samarali ishlashning talabi bo‘lyapti, — deydi Uzun tumani “Inson” ijtimoiy xiz-matlar markazi direktori Alisher Samadov. — Tumandagi Bahoriston mahallasida 3034 nafar aholi yashaydi. Mahallada ikki nafar yolg‘iz yashovchi keksa, 180 nafar nogironligi bo‘lgan shaxs, 19 nafar yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bola hamda 273 nafar bolalar nafaqasi va mod-diy yordam oluvchilar bor. Dastlab ishni mahalladagi aholini monitoring qilishdan boshlagan ijtimoiy xodimlar endilikda ularga bosqichma-bosqich amaliy yordam ko‘rsatishiga ko‘maklashmoqda.

Sirasini aytganda, yangi tuzilma to-monidan mahallalarda olib borilayotgan ishlar aholining roziligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularni yanada shijoatga unda-yapti. Ertangi kunga umid, bugungi bun-yodkorlik ishlariga esa daxldorlik hisssini uyg‘otaypti.

Sarvar TO‘RAYEV,
jurnalist

Yangicha yondashuvlar

HARBIY SOHADA INNOVATSION LOYIHALAR

Ulardan samarali foydalanish soha rivojiga hissa qo‘shadi

Bugungi zamonaviy dunyoda ilm-fan va ishlab chiqarishni integratsiyalash faollashdi. Mamlakatimizda ham bu soha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Turli tashkilotlar ko‘magida istiqbolli g‘oyalarni amalga oshirishni moliyalashtirish jadallashdi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Yoshlar akademiyasi tomonidan 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan o‘tkazilgan “Harbiy bi-lim yurti kursantlari ishtirokidagi Yoshlar akademiyasi forumi”da ilmiy ishlanmalar va innovatsion loyihalar taqdimot qilindi.

Qayd etilganidek, hozirda harbiy yo‘nalishda ta’lim oladigan yoshlar va yosh oilalarning 100 nafardan ortig‘i Yoshlar akademiyasiga a’zo hamda 50 dan ortiq loyihalar hamkorlikda amalga oshirilmoqda. O‘tgan yilda harbiy yo‘nalishda o‘tkazilgan tanlov natijalariga ko‘ra, 1 milliard 128 million 519 ming so‘m miq-doridagi 13 ta loyiha moliyalashtirildi.

— Bugun dunyoda ro‘y berayotgan voqea-hodisalar har bir davlatni, jum-ladan, mamlakatimizni ham o‘z harbiy sa-lohiyatini qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Ayni davrda harbiy sohani ham zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur qilish imkon-siz, — deydi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti



kursanti Sirojiddin Xushnudov. — Shu maqsadda ustozimiz mayor Jonibek Toji-yev rahbarligida maxsus uchuvchisiz zarba beruvchi dron ishlab chiqdik.

Mazkur loyihamizning e’tirof etiladi-gan jihatlaridan yana biri uning loyihasidan tortib, yasallishgacha xorijiy hamkorlarsiz,

o‘zimiz tomonimizdan amalga oshirilishidir. Dronning texnik xususiyatlariga to‘xtalsak, u qariyb bir kilometr baland-likda to‘liq quvvat bilan 40 daqiqaga-cha harakatlanadi. Shuningdek, bu ko‘rsatkichlarni yanada oshirish borasida ham ish olib borayotganimizni ta’kidlab o‘tish joiz. Ayni kunlarda dromimizdan mu-dofaa tizimida foydalanishga ruxsat beri-lishini kutaypmiz.

— Jinoyatchilikni aniqlashda, uni bar-taraf etishda xizmat itarilarning ko‘magi alo-hida o‘rin tutadi, — deydi Mudofaa vaziri-li-gi mutaxassis va xizmat itarlari tayyorlov markazi rahbari Shodiyor Shomurodov. — Ilgari ulardan hid bilish orqali topish kabi jarayonlarda foydalanilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, kuzatuv vositasi sifatida ham ishlatilmoqda. Kengroq tushuntiradigan bo‘lsak, xizmat itarlarning bosh qismiga ku-zatuv kamerasi o‘rnatilib, shubhali obyek-tga yuboriladi va u ko‘zdan kechiriladi.

Mazkur loyiha-ni-ning foydali jihati-ku aniq, biroq aynan bunday kameralarning narxi 10 ming AQSH dollaridan qim-matroq turar edi. Loyiha ustida ishlashni boshlashimizga asosiy sabablardan biri ham aynan narx masalasi bo‘ldi.

Ikki yillik mehnatimiz hamda xorijlik mutaxassislar bilan o‘zaro hamkorlik nati-jasida bugungi kunda xuddi shunday si-fat-dagi kameralarni 25 million so‘m qiymatda ishlab chiqarishga muvaffaq bo‘ldik. Bu xorijdagi narxdan qariyb besh barobar ar-zon, degani.

Loyihamizni tez orada amaliyotda qo‘llash kutilmoqda. O‘qiyamizki, bu lo-yiha harbiy sohada jangovar vazifalarni osonlashtirishga, talafotlarni kamaytirish-ga xizmat qiladi.

Jonibek ALLJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni

JANGOVAR SHAYLIK

ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mahsuli



Tursunmurod MAMATQOBILOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
dotseinti, siyosiy fanlar nomzodi

Boshlanishi 1-betda

Taraqqiyot strategiyasida belgilangan yetita ustuvor yo'nalish bo'yicha mamlakatimiz yoshlarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ham eng muhim vazifalar sirasiga kiradi. Xalqimiz tinchligini saqlash maqsadida yurtimizni bosqinchilardan munosib himoya qilgan, Vatan ozodligi yo'lida dushmanga qarshi mardonavor kurashgan buyuk vatandoshlarimiz — Shiroq, To'maris, Spitamen, Jalo'ldin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur kabi milliy qahramonlarimiz jasoratini harbiy xizmatchilarga doim namuna sifatida ko'rsatishdan faxrlanamiz.

Hozir Qurolli Kuchlarimiz tashkiliy va tarkibiy jihatdan ancha takomillashdi. Tuzilmalarning harakatchanligi, jangovar qobiliyati, harbiylarning jismoniy va ma'naviy tayyorgarligi oshdi. Harbiy qism va bo'linmalar zamonaviy qurol-yarog' va jangovar texnika

to'g'risida"gi qarorga asosan, harbiy xizmatchilarning farzandlari uchun oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta'lim yo'nalishlariga davlat granti asosida belgilangan umumiy qabul kvotasining besh foizi miqdorida davlat granti asosidagi qo'shimcha qabul kvotasi ajratilmoqda. Shuningdek, harbiy xizmatchilar va oila a'zolarining salomatligini ta'minlash bo'yicha zarur sharoit yaratildi. Uy-joyga muhtoj oilalar belgilangan tartibda uy-joy bilan ta'minlanayapti.

Milliy mentalitetimizdan kelib chiqqan holda, oilada bitta o'g'il bo'lib, qolganlari qiz farzand bo'lsa, bu yigitlarga ota-onasi yashaydigan hududda xizmat qilish imkoniyati beriladi. Shuningdek, ijobiy tavsiyaga ega, vakant lavozim yo'qligi sababli harbiy unvonida xizmat muddatining kamida ikkitasini o'tagan ofitserlarga lavozim bo'yicha bir pog'ona yuqori turuvchi harbiy unvon taqdim etilishi, har yili harbiy xizmatchilarning navbatdagi ta'tiliga xizmat yillarining taqvim hisobiga ko'ra qo'shimcha tarzda 5, 10, 15 sutkalik ta'tillar berilishi kabi imtiyozlar nazarda tutiladi.

Kuchli ijtimoiy himoya, o'z navbatida, ofitser va askarlarimizning fidoyilik, burchga sadoqat bilan xizmat qilish, professional tayyorgarligini oshirib borish uchun zamin yaratmoqda. Kompleks chora-tadbirlar natijasida Vatan himoyachilarining harbiy xizmatga yondashuvi tubdan o'zgardi, harbiy qismlarda mas'uliyat va intizom mustahkamlandi. Barcha harbiylar qalbidan ona yurti bilan faxrlanish va g'ururlanish hissi yanada ortdi.

Bugun dunyo axborot xurujini boshdan kechirmoqda. Shu sababli nafaqat aholi, balki

Vatanparvarlik tuyg'usi, avvalo, insonda yurtga nisbatan ichki va tashqi xavflarning oldini olishda mustahkam immunitet shakllanishiga xizmat qiladi.

O'z xalqiga sadoqat va fidoyilik, ona Vatanni himoya qilish, uni cheksiz sevis har qanday insonning haqiqiy vatanparvarlik fazilati hisoblanadi. Zero, vatanparvarlik Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadi. Shu ma'noda, Vatan ravnaqi uchun faol bo'lishga undaydigan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy fazilat, desak ham to'g'ri bo'ladi.

Vatanparvarlik faqat fazilat emas

milliy g'oya asosida birlashish, jipslashishdir

Mansur MUSAYEV,
Ijtimoiy-ma'naviy
tadqiqotlar instituti bo'lim
boshlig'i,
siyosiy fanlar doktori

Tarixdan ma'lumki, Vatan ozodligi uchun kurashish masalasi allomalar asarlari hamda ezgu g'oyalarni ifoda etuvchi ta'limotlarning bosh g'oyasi bo'lib kelgan. Bino-barin, muqaddas manbalarda ham "Vatanni sevmok iymondandir", deyilgan. Shunday ekan, Vatan tarixini bilgan, ulug' ajdodlar merosini chuqur o'rgangan har bir inson qalbidan milliy g'urur-iftixor tuyg'ulari yanada jo'sh urib, el-yurtiga, Vatanga sadoqati ortib boraveradi.

Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy Vatanni sevish va uni ardoqlashni tabiat va jamiyatning muhim qonuniyati sifatida ta'riflaydi. "Vatan. Har bir kishining tug'ulub o'skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ulgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan — uyuridan ayrilsa, o'z



Zero, tomirida milliy g'urur, Vatan ishq jo'sh urgan oriyatli, ma'naviy jasoratga ega odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi.

Prezidentimiz raisligida joriy yil 2-yanvar kuni mudofaa qurilishi va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda ham yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yana bir bor e'tibor qaratildi.

Globallashuv jarayonida harbiy xizmatchilar tomonidan milliy qadriyatlarini saqlashning o'ziga xos tamoyillari haqida fikr yuritganda, harbiy xizmatchi — ruhan tetik, jismonan sog'lom, axloqiy barkamol, talab-



bilan ta'minlandi. Milliy armiyamizni professional kadrlar bilan to'ldirish, harbiy xizmatchilarning tayyorgarligini, bilim va ko'nikmasini yanada yuksaltirish borasidagi ishlar diqqatga sazovor.

Davlatimiz rahbari harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirishga muntazam e'tibor qaratish haqida ko'p ta'kidlaydi. Mudofaa vazirligi qo'shinlarida o'zbek xalqining buyuk mutafakkirlari misolida harbiy xizmatchilarning o'z milliy va madaniy merosi bilan faxrlanish tuyg'usini oshirishga qaratilgan harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish borasidagi ishlar ko'lamini kun tartibidan tushirmaslikni qayd etadi.

Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoyalash, oilaviy shart-sharoitlarini to'g'rilash, uy-joy bilan ta'minlash masalalari ham hal etilmoqda. Mamlakatimizda harbiy xizmat nufuzini yuksaltirish va Qurolli Kuchlarimiz jangovar shayligini yanada oshirish maqsadida qo'shin turlarini yosh va salohiyatli kadrlar bilan to'ldirish, harbiy xizmat o'tash uchun qulay sharoit yaratish, harbiy xizmatchilar va oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini ta'minlash doimiy e'tibordir. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiylari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar



harbiy xizmatchilar tafakkurida ham axborotni tahliliy o'zlashtirish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun barcha shaxsiy tarkib va ijtimoiy guruhlarining qiziqishi, kayfiyati, ijtimoiy holati o'rganilib, media olamida faol bo'lgan buzg'unchi g'oyalar ta'sir doirasini ilmiy mushohada bilan tahlil eta olish ko'nikmasini o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Vatanparvarlik ruhini mustahkamlash zarurligidan kelib chiqqan holda, Qurolli Kuchlar akademiyasida tahsil olayotgan kursant va tinglovchilarga, malakaviy darslarni o'zlashtirayotgan serjantlarga muntazam ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik darslari o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish konseptsiyasida harbiy xizmatchilarning ma'naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish uchun mas'uliyat tuyg'usini chuqur singdirish, dunyoda va yon-atrofimizda sodir bo'layotgan globallashuv jarayonlariga nisbatan ongli munosabat va faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Bugun barcha toifadagi harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlariga yuqori talablar qo'yilib, shaxsiy tarkibning g'oyaviy va jismoniy chinigishini kuchaytirish, jangovar mahoratini oshirish, intizomni mustahkamlashga jiddiy urg'u qaratilgan. Xizmatning intellektual va ruhiy tangligi oshib borgan sayin ofitserning intizomini yanada mustahkamlash zarurati kun tartibida dolzarb bo'lib qolmoqda. Zero, intizom armiyaning asosiy kuchidir.

Keyingi yillardagi islohotlar natijasida milliy armiyamiz har qanday xavf-xatarga munosib zarba bera oladigan qudratli, tezkor va samarali kuchga aylanib ulgurdi. Qurolli Kuchlarimiz xodimlari Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi hamkasblari bilan yaqin sheriklik aloqalarini o'rnatib, bir qator qo'shma o'quv mashg'ulotlarida qatnashdi. Yuqori darajadagi

harbiy delegatsiyalar tashrifi tashkil etildi, tezkor va jangovar tayyorgarlik borasida tajriba almashildi. Bu kabi hamkorlik mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni, Markaziy Osiyo deb atalmish umumiy uyimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashning muhim omiliga aylanmoqda.

Harbiy xizmatchilarimiz o'z professional tayyorgarlik darajasi bo'yicha jahondagi yetakchi mamlakatlar armiyalarining harbiy xizmatchilaridan aslo qolishmasligini so'zda emas, amalda isbotlamog'da. Xalqaro harbiy o'quv musobaqalari, armiyalar o'rntasidagi va sport bellashuvlarida O'zbekiston vakillari mahorati, ruhan baquvvatligi, g'alabaga bo'lgan irodasini namoyon etmoqda, buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari ekanini yaqqol ko'rsatmoqda.

Milliy armiyamizni qurol-yarog' va boshqa zarur vositalar bilan ta'minlashga qodir bo'lgan mudofaa sanoati kompleksini yanada rivojlantirish bo'yicha vazifalar bosqichma-bosqich hal qilinayotir. Jumladan, Chirchiq aviatsiya ta'mirlash zavodi va jangovar o'q-dorilar ishlab chiqaradigan korxonaning modernizatsiya qilinishi hamda texnik qayta jihozlangani bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ularda qayta tashkil etilgan ilmiy-texnik salohiyat esa mazkur tarmoqlarda ilmiy ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirishning asosiga aylanib boryapti. Mamlakatimizning to'laqonli mudofaa sektorini shakllantirish bo'yicha qilinayotgan ishlar yaqin istiqbol-dan nafaqat milliy armiyani qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlash, balki qo'shimcha ish o'rnlari yaratish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish imkonini ham beradi.

Harbiy shaharchalar zamonaviy qiyofaga ega bo'ldi. Moddiy ta'minot xizmatlari sohasiga outsorsing tizimi joriy etildi. O'tgan yillarda 15 mingdan ziyod harbiy xizmatchi oilalarini qulay va shinam kvartira bilan ta'minlash uchun 300 dan ziyod ko'p qavatli uy-joy barpo etildi, harbiy xizmatchilarning ayollari uchun qariyb 1000 ga yaqin yangi ish

o'mi yaratildi, 2400 nafar harbiy pensioner ishga joylashtirildi.

Armiyamiz unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va ona yurtga muhabbat, milliy qadriyat va an'analarimizga hurmat, shonli tariximizni chuqur bilish ruhida tarbiyalash borasidagi ishlarga faol kirishdi. "Vatanparvar" va "Faxriylar" singari tashkilotlar, shuningdek, Mudofaa vazirligi qoshidagi Jamoatchilik kengashi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni yanada kuchaytirish hamda ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bo'yicha g'oyat zarur ishlarni birgalikda davom ettirmoqda.

Vatanparvarlik tuyg'usi harbiy sohani anglash, his qilish orqali yanada mustahkamlanadi. "Xalq va armiya — bir tan-u bir jon!" tamoyilini keng jamoatchilikka yetkazish uchun yurtimizning barcha hududida ma'naviy-ma'rifiy va madaniy targ'ibot tadbirlari tashkil etilayotir. Vatan himoyasi va el-yurt tinchligi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va xodimlarning oila a'zolari, xizmat burchini bajarish chog'ida nogiron bo'lib qolgan harbiylar, e'tibor hamda ko'makka muhtoj Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va faxriylari, shuningdek, Qurolli Kuchlar faxriylariga moddiy-ma'naviy yordam berish bilan bog'liq xayriya tadbirlari o'tkazilmoqda.

Xalq va armiya o'rntasida ishonchli ko'priikka aylangan harbiy-ma'muriy sektorlar faoliyatida muayyan yutuqlar ko'zga tashlanmoqda. Ushbu sektorlar tashkil etilganidan buyon "Xalq va armiya — bir tan-u bir jon!" shiori ostida harbiy infratuzilmalarni modernizatsiya qilish va to'planib qolgan ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar qilinmoqda. Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida ham "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" dasturiy g'oyasi asosida yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlar va vatanparvarlikni shakllantirish eng muhim vazifalardan.

Inson qalbidan millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg'ular qanchalik chuqur joy olgan bo'lsa, mahdudlik o'rniiga milliy g'oyalar vujudga keladi. Mana shunday fazilatlariga ega insonlarda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o'z-o'zini anglash, millat, Vatan sha'ni va manfaatini himoya qilishdek muqaddas tuyg'ular shakllanadi.

yeridagi kabi rohat-rohat yashamas, maishati talx bo'lub, hap vaqt dilining bir go'shasida o'z vatanining muhabbati turar".

Vatanparvarlik tuyg'usi, avvalo, insonda yurtga nisbatan ichki va tashqi xavflarning oldini olishda mustahkam immunitet shakllanishiga xizmat qiladi. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun kurashda tashabbuskor bo'lish, tinchlikni ko'z qorachig'idek asrash, unga fidoyilik bilan xizmat qilishga undaydi.

Inson qalbidan millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg'ular qanchalik chuqur joy olgan bo'lsa, mahdudlik o'rniiga milliy g'oyalar vujudga keladi. Mana shunday fazilatlariga ega insonlarda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o'z-o'zini anglash, millat, Vatan sha'ni va manfaatini himoya qilishdek muqaddas tuyg'ular shakllanadi.

Bugungi zamon shiddati inson uchun ma'naviyat naqadar najotkor kuch ekanini namoyon etmoqda. Zero, axloqsizlik, odobsizlik, ma'naviy qashshoqlik insonni ma'naviy tubanlik girdobiga giriftor etib, keng miqyosda esa jamiyat taraqqiyotini izdan chiqarib, parokandalikni yuzaga keltirayotganini namoyon etmoqda. Ma'naviyat insonning jamiyatda yashashi uchun zarur ijobiy fazilatlarini namoyon etuvchi beqiyos kuch. Aynan ma'naviyat tufayli insonda go'zal odob-axloq fazilatlarini shakllanib, uning jamiyatdagi mavqeiini belgilab beradi. Shu bois, jamiyat hayotida ma'naviyat masalasiga nihoyatda mas'uliyat bilan yondashishni taqozo etadi.

chan, ma'naviy sog'lom, qanoatli, rostgo'y, sadoqatli, pokiza, ziyrak, andishali, vazminlik kabi shaxsiy fazilatlariga ega bo'lish talab etiladi. Shu bilan birga, o'z sohasining yetuk bilimdoni bo'lishi, hunar sirlarini puxta o'rganishi, yutuq-kamchiliklarini idrok eta olishi, nutq madaniyatini egallashi asnosida barchaga har jihatdan shaxsiy namuna va ibrat bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Vatanparvarlik milliy qadriyatlar zamiridagi eng muhim jihatlardan biri sanaladi. Zero, bugungi kunda vatanparvarlik fazilatlarini kuchaytirishda xalqimizning milliy mentaliteti va qadriyatlarimizni yosh avlod ongiga chuqur singdirish hamda shu orqali ularda kelajakka ishonch tuyg'ularini qaror toptirish muhim.

Xulosa qilib aytganda, Vatan sha'ni, or-nomusini jon-jahdi bilan himoya qiladigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalash, buning uchun farzandlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurt taqdiriga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg'usini kuchaytirish mudom eng ustuvor masala bo'lib davom etaveradi. Zero, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ulari, ezgu g'oyalarni tarannum etish tinchlik va barqarorlikning asosi ekan, bu har bir vatandoshimizning muqaddas burchi bo'lib qolaveradi.



Bizning suhbat

— Qishloq xo'jaligi sug'urtasi majburiy sug'urta turi emas. Yurtimizdagi umumiy sug'urta sohasida litsenziyaga ega har qanday sug'urta tashkiloti ushbu sug'urta turini amalga oshirishi mumkin.

Ayni paytda kompaniyamizda qishloq xo'jaligi bilan bog'liq 30 ga yaqin sug'urta xizmatlari mavjud va ushbu yo'nalishda o'ziga xos tajriba bor. O'tgan yillar mobaynida kompaniya tomonidan bir necha yuz milliard so'mlik sug'urta qoplamalari to'lab berildi. Hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan turli uchrashuv va tadbirlar o'tkazilayotgani, doimiy ravishda kompaniya faoliyati shaffof tarzda ochiqlab borilayotgani ish samaradorligini oshirmoqda.

Agrar sohani sug'urtalashga oid xalqaro loyihalarning hayotga tatbiq etilishida ham kompaniyamiz o'z tashabbuslari bilan faol ishtirok etmoqda. Xususan, InsuResilience Solutions Fund (ISF) xalqaro jamg'armasi O'zbekistonda bog'dorchilik va sabzavot

lari yetishtiruvchilarga hosilni sug'urta qilish xarajatlarining 50 foizi subsidiya tarzida qoplab berilishi belgilanganini keltirish kifoy.

— Mamlakatimizda tashkilot va idoralar faoliyatini raqamlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham gapirib o'tsangiz. Zero, bu davr talab etayotgan jarayon.

— To'g'ri ta'kidlangiz, raqamlashtirish — davr talabi. Bugun zamonaviy texnologiyalarsiz, faoliyatni raqamlashtirishsiz rivojlanishni tasavvur qilib bo'lmaydi. O'tgan yil dekabr oyida Prezidentimiz raisligida IT infratuzilmasini yaxshilash, soha va tarmoqlarni raqamlashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videosektor yig'ilishida ham shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi sharoitda hech bir sohani raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmagligini, byudjetdan katta mablag' oluvchi idoralarda raqamlashtirish hayot-mamot masalasi bo'lishi zarurligi ta'kidlandi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda ushbu

gan strategiyasi doirasida mijozlar va respondentlar o'rtasida so'rovnomalarni o'tkazildi, sug'urta shartlari mijoz hamda zamon talabiga moslashtirildi. Hududiy bo'linmalardagi sharoitlar yaxshilandi. Innovatsiya va marketing ishlari yangi darajaga olib chiqildi. Jamiyatning har bir mijoziga alohida e'tibor berish uchun "B2B" va "B2P" tamoyili asosida ishlar tashkil qilindi.

Kompaniyamiz xizmat sifatini oshirish, mijozlar ishonchini qozonishga alohida e'tibor qaratmoqda. Shunday sa'y-harakatlarimiz natijasi xalqaro reyting agentliklari tomonidan munosib baholab borilmoqda. 2019-yildan e'tiboran, kompaniyamiz faoliyatiga dunyoning yetakchi reyting agentligi hisoblanadigan "Fitch Ratings Cis Ltd" xalqaro reyting agentligi tomonidan "BB-" barqaror reytingi berib kelinmoqda. Jumladan, 2023-yil iyul oyida mazkur xalqaro reyting yana bir bor qayta tasdiqlandi. Bu natija xalqaro investorlar va mahalliy aholining sug'urta xizmatiga ishonchini yanada mustahkamlash uchun muhim indikator hisoblanib, jamiyatning xalqaro qayta sug'urta bozoriga chiqish imkoniyatini jadallashtirmoqda.

Bundan tashqari, "United Registrar of Systems" xalqaro sertifikatlashtirish uyushmasi tomonidan "O'zagrosug'urta" AJ boshqaruvi hamda Toshkent shahar filialiga sifat menejmenti tizimi sertifikati topshirildi. Bu bilan jamiyat faoliyati ISO 9001:2015 xalqaro standart talablariga muvofiqligi tasdiqlandi. Ushbu hujjat xalqaro maydonda jamiyat hamda uning filiali tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga yuqori sifatli sug'urta xizmati ko'rsatib kelinayotgani tan olinganini belgilaydi.

Pirovardida 2023-yil mobaynida ta'minlangan sug'urta mukofotlari 391,4 milliard so'mni tashkil etdi. Rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha olingan majburiyat hajmi esa 174,2 trillion so'mga yetdi. Bu borada ham o'tgan yilga nisbatan 146,3 foizga yuqorilash kuzatilmoqda. Shu davr mobaynida mijozlar bilan jami 675 ming 74 dona sug'urta shartnomasi tuzilib, ularning qariyb 90,9 foizi yoki 613 ming 419 tasi odamlangan sog'lig'i va mol-mulkini uchun ko'rsatilgan sug'urta xizmatlarini tashkil etadi.

Olingan majburiyatlar doirasida mijozlarimiz manfaatini himoya qilish maqsadida 49,2 milliard so'mlik sug'urta tovonlari to'lab berildi. Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 113,6 foizni yoki qariyb 5,9 milliard so'mni tashkil qiladi, demakdir.

— Sug'urta xizmatlari ommalashishi uchun, ya'ni odamlar sug'urta tashkilotlarini yaqin ko'makchi sifatida ko'rishi uchun nimalar qilish kerak, deb o'ylaysiz?

— Jamiyat tomonidan sug'urta xizmatlarini ommalashtirish maqsadida talab va ehtiyojdan kelib chiqib, sug'urta turlari ishlab chiqilmoqda, respublika va mahalliy tele-radio kanallarda, gazeta-jurnallarda, internet ijtimoiy tarmoqlarida kompaniya xizmatlariga oid rolliklar taqdim etib kelinmoqda.

Bundan tashqari, mijozlarning kompaniya xizmatlaridan foydalanishini rag'batlantirish, jumladan, onlayn sug'urtani rivojlantirish maqsadida so'nggi ikki yildan buyon ommaviy yutuqli aksiyalar tashkil etilib, qimmatbaho sovg'alar o'ynalmoqda.

Biz mijozlarga sug'urta kompaniyasini tanlashda adashmaslikni, buning uchun, avvalo, kompaniya tarixi bilan qiziqish, uning ochiq manbalardagi moliyaviy hisobotlari bilan tanishish, muqim xizmat joyiga ega ekanini bilish va eng asosiysi, sug'urta shartlariga diqqat bilan e'tibor berishini so'rab qolamiz.

Yana shuni qo'shimcha qilib o'tmoqchiman, siz qaysi sug'urta kompaniyasi mijoz bo'lishingizdan qat'i nazar, "O'zagrosug'urta" AJ xodimlari sohaga oid mutlaqo bepul maslahatlar beradi.

**"Yangi O'zbekiston" muxbiri
Dilshod ULUG'MURODOV
suhbatlashdi.**

Boshlanishi 1-betda

Sug'urta shartnomasi yoki sug'urta kompaniyasi biror-bir xavf-xatar yoki tavakkalchilikning oldini olmaydi, balki muayyan xavflar yuzaga kelgan taqdirda kutiladigan zarar bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Bu shaxsning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga yoki yirik korxonalarga yetkazilgan zarar ham bo'lishi mumkin.

Sug'urtaning muhim funksiyalaridan yana biri bu mablag'larni qayta taqsimlashdir. Ya'ni sug'urta xizmati ko'rsatish orqali mablag'lar jamlanadi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga investitsiya orqali qayta taqsimlanadi.

Umumiy qilib aytganda, sug'urta davlat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Bu ham aholini, ham biznesni moliyaviy yo'qotishlardan himoya qilishga mo'ljallangan moliyaviy institutlardan biridir. Binobarin, sug'urta orqali fuqarolar moliyaviy va ijtimoiy himoya qilinadi. Moliyaviy barqarorlik saqlanadi — sug'urta to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish biznesni ehtimoliy zarar yoki bankrotlikdan olib chiqishga yordam beradi. Sug'urta tashkilotlarining bo'sh mablag'lari evaziga korxonalarga sarmoya kiritiladi — tadbirkorlik faoliyati rag'batlantiriladi. Fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va biznesga ko'maklashish byudjet mablag'laridan emas, balki shakllantirilgan sug'urta zaxiralari hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Bu esa davlat (byudjet) xarajatlarning bir qismini kamaytirishga yordam beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda sug'urta xizmatlarining yalpi ichki mahsulot (YIM) dagi ulushi rivojlangan davlatlardagi ko'rsatkichga nisbatan kamroq. Buyuk Britaniya, Fransiya, Niderlandiya kabi davlatlarda bu ko'rsatkich ancha yuqori, hatto 10 foizdan ham oshadi. Masalan, AQSHda 3000 ga yaqin sug'urta turlari bo'yicha xizmat ko'rsatiladi. O'zbekistonda esa ushbu ko'rsatkich o'rtacha 150 tani tashkil etadi. Qisqasi, hali O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bilan qamrab olinmagan juda keng maydon mavjud.

O'zbekiston sug'urta bozori aniq mexanizmlarga asoslangan izchil siyosat natijasida qadam-baqadam rivojlanmoqda. So'nggi besh yil statistikasiga e'tibor beradigan bo'lsak, sug'urta mukofotlari hajmi deyarli 6

barobar o'sgan, bu ko'rsatkich boshqa moliyaviy sohalar rivojlanish ko'rsatkichidan ancha yuqori.

Biroq soha oldida o'z yechimini kutayotgan bir qancha masalalar ham bor. Boshqa sug'urta kompaniyalari bilan hamjihatlikdagi harakat orqali sug'urta bozorining rivojlanishiga erishish mumkin. Ya'ni bu yerda sug'urta xizmatlari qamrovi va sifatini, kadrlar malakasini oshirish, xizmatlarni raqamlashtirish ustida ishlash kerak. Ikkinchi tomondan, mijozlarning kelajakda sug'urta xizmatlaridan malakali foydalanishi va to'g'ri tanlovni amalga oshirishi uchun aholi o'rtasida sug'urta madaniyatini yanada keng targ'ib qilishni faollashtirish lozim.

Shu o'rinda aytish joizki, jamiyatimiz tomonidan xodimlarning malakasini oshirish masalasiga doimiy e'tibor qaratib kelinmoqda. Oliy ta'lim muassasalari bilan imzolangan memorandumlar asosida tizimimizda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar qisqa muddatli o'quv kurslarida o'qitilayapti. Xususan, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 14 nafar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuriy Davlat boshqaruvi akademiyasi o'quv kurslarida ikki bosqichda jami 31 nafar xodim o'z sohasi bo'yicha malaka oshirish kurslarida qatnashdi.

2023-yilda jahon sug'urta bozoridagi yangiliklardan xabardor bo'lish, ko'p yillik tajribaga ega kompaniyalar ish tajribasini o'rnatish maqsadida 30 nafardan ortiq xodimimiz sug'urta mahsulotlarini sotishni



boshqarish yo'nalishida Chexiyaning Praga shahrida, yana bir necha xodim esa qishloq xo'jaligini sug'urtalash yo'nalishida Ozarbayjonning Boku shahrida malaka va kasbiy tajribasini oshirib qaytdi.

— Ko'pchilik "O'zagrosug'urta" AJning nomidan qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashganini angelaydi. Dehqon va fermerlarning, umuman, agrar soha faoliyatini sug'urtalash borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham to'xtalib o'tsangiz.

mahsulotlari yetishtirishda iqlim bilan bog'liq xavf-xatarlardan himoya qilish bo'yicha sug'urta mahsulotlarini yaratish va joriy etishni moliyalashtirish rejalashtirilgan. BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi yordamida Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Qishloq xo'jaligi vazirligi ushbu loyihaning amalga oshirilishida yaqindan hamkorlik qiladi. Bog'larni iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavf-xatar va tabiiy ofat oqibatlaridan himoya qilish maqsadida Sug'urtani rivojlantirish forumining (IDF) ikki a'zosi hisoblangan dunyodagi yetakchi Europa Re va Swiss Re qayta sug'urta kompaniyalari mamlakatimizdagi ikkita mahalliy sug'urta kompaniyalaridan biri — "O'zagrosug'urta" AJ bilan fermer xo'jaliklari uchun qishloq xo'jaligi sug'urtasi mahsulotini ishlab chiqish harakatida. Ushbu loyiha dastlabki bosqichda Farg'ona vodiysi viloyatlari hamda Samarqand viloyati hududlarida tatbiq etilishi rejalashtirilmoqda.

Muhimi, so'nggi vaqtlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslari mustahkamlanayapti. Bunga misol sifatida Prezidentimizning 2022-yil 6-oktabrdagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, davlat byudjetidan agrar soha vakillari, ya'ni qishloq xo'jaligi mahsulot-



Taraqqiyot mezonlari

JST ME'YORLARIGA BO'YLASHYAPMIZ

Bu nufuzli tashkilotga a'zolikni tezlashtiradi

Botir MARDAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

O'zbekistonning global ishlab chiqarish va yetkazib berish o'zirlariga qo'shilishi uchun savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsiyaviy va boshqa sohalarda ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni zarur darajadagi energiya, suv va infratuzilma resurslari bilan ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar, muhim investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Natijada mamlakat iqtisodiyoti va unga jalb etilayotgan sarmoyalar hajmi ham o'sib boryapti. Bular "O'zbekiston — 2030" strategiyasidan joy olgan muhim maqsadlardan biri — mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lishi yo'lidagi asosiy qadamlardir. Binobarin, JSTga a'zolik mamlakatimiz jahon iqtisodiyotining ajralmas qismi sifatida a'zo davlatlar asosida munosib o'rinda ega bo'lishini ta'minlaydi.

Bu borada Prezidentimizning qator farmon hamda qarorlarida milliy qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini xalqaro normalarga muvofiqlashtirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish bo'yicha ko'plab vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, davlatimiz rahbarining 2021-yil 10-sentabrdagi "Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va davlat bojxona xizmati organlari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi farmonida tovarlarning kodini aniqlash yuzasidan tayinlangan ekspertiza yakunlanguna qadar tovarlarni bojxona to'lovlarini to'lanishi uchun bosh ta'minot taqdim



qilinganda shartli chiqarib yuborish amaliyoti joriy etildi. 2022-yil 26-apreldagi "Intellectual

mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorga muvofiq esa bojxona organlari intellektual mulk obyektlari huquq egalarining qonuniy manfaatlarini himoya qilishi mumkin bo'ldi. Natijada bojxona nazorati va rasmiylashtiruv jarayonida intellektual mulk huquqlari buzilgani alomati mavjud bo'lgan tovarlar aniqlanganda huquq egasining arizasi asosida ularning huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda chora ko'rish imkoniyati yaratildi.

Shuningdek, 2023-yil 28-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga bojxona tartib-taomillarini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun milliy qonunchilik normalarini JSTning Bojxona qiymati va Savdo tartibotlarini soddalashtirish to'g'risidagi bitimlari, Intellectul mulk huquqlarining savdo jihatlarini to'g'risidagi

kelishuvi (TRIPS) hamda Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi xalqaro konvensiya talablariga muvofiqlashtirishga qaratilgan. Bunday hujjatlar, tabiiyki, iqtisodiyotda teng raqobat sharoitini yaratish hamda chet el sarmoyasini keng jalb etishga xizmat qiladi. Aytaylik, bojxona qiymati sohasidagi me'yorlarning JST normalariga muvofiqligi xorijiy investorlar uchun ishonch, barqarorlik, aniqlik va oshkorlikni ta'minlash bilan birga, bojxona qiymatini aniqlash tartib-taomillaridagi yashirin iqtisodiyot ulushi kamayishiga olib keladi. Misol uchun, hozir eksport-import amaliyotlarida qo'llaniladigan invovs narxini qabul qilish 2023-yilning dekabrda 69,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ushbu ko'rsatkichning JSTga a'zo mamlakatlardagi kabi 80 foizdan ortishiga olib keladi.

Bojxona operatsiyalarini bajarish chog'ida yuzaga keladigan bojxona to'lovlarini

to'lashni ta'minlash uchun bojxona to'lovlarini to'lashning bosh ta'minoti taqdim etilishi natijasida o'tgan yili 17 mingdan ortiq tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchisiga 8,3 trillion so'm bojxona to'lovini kechiktirib 69,3 foizga ruxsat berildi. 57 trillion so'm bojxona to'lovidan imtiyoz va preferensiya qo'llanildi.

Bojxona kodeksiga JSTning asosiy hujjatlaridan hisoblanadigan Intellectul mulk huquqlarining savdo jihatlarini to'g'risidagi xalqaro kelishuvi talablari asosida kiritilgan intellektual mulk obyektlari huquq egalarining qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan yangi moddalarda keltirilgan talablar orqali nafaqat tovarlar importida, balki eksportida ham intellektual mulk obyektiga bo'lgan huquqlarning bojxona organlari tomonidan himoyasi ta'minlanadi.

Bu, o'z navbatida, yurtimizga kirib kelayotgan yuqori sifatli xorij brendidagi tovarlar hajmini oshirish hamda ishlab chiqarilayotgan majmi brenddagi mahsulotlardan boshqa shaxslarning noqonuniy foydalanishini keskin qisqartirishga xizmat qiladi. Mamlakatimiz bojxona organlarining intellektual mulk obyektiga bo'lgan huquqlarni faol tarzda himoya qilishi orqali mazkur yo'nalishda ish samaradorligi o'n barobardan oshishi kutilmoqda.

Milliy qonunchilikka kiritilgan mazkur yangi normalar, o'zgartirish va qo'shimchalar O'zbekistonning JSTga qo'shilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish barobarida, iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirishga ham hissa qo'shadi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

2024-yil – Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili

YANGI TASHABBUSLAR
VA DADIL QADAMLAR

davr yoshlarining hayotida aks etayotir

Boshlanishi 1-betda

Orian-Mehroj RASHIDOV,
O‘zbekiston yoshlar tadbirkorligini
qo‘llab-quvvatlash markazi
NNT direktori:

Ilk tadbirkorligimni ijtimoiy sohadan boshlaganman. “Ultra Bag Star” nomli bu loyihada nogiron ayollarni ishlatilgan bannerlardan sumka ishlab chiqarish bo‘yicha ish bilan ta’minlash maqsad qilingan. Odatda bannerlar foydalanilgandan so‘ng tashlab yuboriladi. Biz ularidan samarali foydalanish, shu orqali ekologiya tozaligiga ozmi-ko‘pmi hissa qo‘shishimiz mumkinligini o‘ylab, bu g‘oyani amalga oshirishga qaror qildik. Quvonarlisi, tashabbusimizni ko‘plab tadbirkorlar qo‘llab-quvvatladi. Firma va kompaniyalar-dan tadbirlar, treninglar o‘tkazilganda ishlatilgan bannerlarni olib, sumka tikishga yo‘naltirdik. Bundan tashqari, amalga oshirgan g‘oyalarni o‘z samarasini bera boshlagan.

2019-yildan O‘zbekiston yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash markazi direktori sifatida faoliyat yuritib kelyapman. Shuningdek, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan 10 oylik “Yosh Tadbirkor University” professional biznes ta’lim dasturi, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning minglab startupchi yosh-



ajratdik. Bularning barchasi ularni mamlakatimizda tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish borasidagi e’tibor natijasidir.

2022-yil 22-avgust kuni davlatimiz rahbarining biz — tadbirkorlar bilan o‘tkazgan ochiq muloqoti hayotimda katta iz qoldirdi. Bu tadbirda Prezidentimizga “Hayot formulangizning siri nimada, bunchalik energiya

ekanim menga ko‘p imkoniyatlar beradi. Eng avvalo, ishimdan zavq va quvvat olaman. Bilim va tajriba orttirayapman. Yana ham aniqroq aytсам, men o‘zimni shu sohada kashf et-yapman. Bizning asosiy vazifamiz yosh tadbirkorlarga bilim berishdan iborat. Asosiy maqsadimiz — “Biz maslahat bermaymiz, biz biznes boshlashni o‘rgatamiz”.

Ishimizning samarali bo‘lishi uchun, avvalo, o‘zimiz o‘qishdan, izlanishdan to‘xtamasligimiz kerak. Mukammal faoliyat olib borishga, o‘z ishing ustalarini — mutaxassislarni taklif qilib, darslarni tashkil etishga harakat qilamiz. Sotuv bo‘limlari tizimlari sohasida, jamoa yig‘ish va rivojlantirish, moliyani boshqarish, yuridik masalalar, marketing, SMM, mahsulotni sota olish, brend qilish, ishonch yaratish, IT, sayt va ilovalar, shuningdek, telegram bot yaratish kabilarda bu yo‘nalish menga o‘z bilimlarimni aniq baholash va rivojlantirish bo‘yicha natija berdi.

Ko‘plab yoshlarga bilim va moliyaviy ko‘mak berayotganimizda, albatta, o‘z tajribamiz oshadi. Emotsiya, yaxshi kayfiyat olamiz.

Yutuqlarimizni har yili hisobot tarzida ko‘rsatamiz. 2023-yil uchun ko‘plab rejalar-ni amalga oshirishni reja qilgandik, ularning deyarli barchasiga erishdik. Masalan, Feruz Allayev muallifligida Yoshlar ishlari

Hilola OBIDOVA,
“Beton-Sanoat” MCHJ bosh direktori o‘rinbosari:

Inson orzu qilishdan, rejalar tuzishdan, maqsad qo‘yishdan hech qachon qo‘rqmasligi, amalga oshirishga harakat qilishi kerak. Agar u ezigulikka xizmat qilsa, albatta.

Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanida tug‘ilib, voyaga yetdim. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida tahsil olganman. Ayni paytda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistrantiman. Ta’limning bu bosqichida tashqi iqtisodiy aloqalar bo‘yicha o‘qiyapman.

Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyati bilan mashg‘ulman.

ko‘rsatish markazini ishga tushirdik. Savdo markazimizda xizmat ko‘rsatish bilan birga, yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali, foydali o‘tkazishi uchun elektron kutubxona va IT zonasini ham tashkillashtirganmiz.

Tadbirkorlik maqsadimni butunlay kattaroq qo‘yishda, rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lishda turtki bo‘ldi.

Tadbirlarda taniqli tadbirkorlar bilan ko‘rishib qolamiz. Ular biz — yoshlar bugungi sharoitdan unumli foydalanishimiz kerakligi-

KATTA MAQSADLAR QO‘YISHGA
HECH QACHON QO‘RQMAGANMAN

Bizning eng katta muvaffaqiyatimiz yangi O‘zbekistonda tadbirkorlar uchun yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar davrida faoliyat olib borayotganimiz, deb bilaman.

Faoliyatimizni bir yo‘nalishda qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarishga mo‘ljallangan 70-80 nafar ishchidan iborat korxona tashkil etish bilan boshlaganmiz.

Barcha soha vakillari, xususan, tadbirkorlarga berilayotgan imtiyozlar natijasida bugungi kunda korxonamizdagi ishchilar soni 700 nafargacha yetib, ko‘p tarmoqli, ya’ni qurilish materiallarini ishlab chiqish, zamonaviy uy-joylar barpo etish, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanib kelyapmiz. Bundan tashqari, yuk transportlarini ijaraga berish tizimini yo‘lga qo‘ydik. Natijada kichik korxonadan yirik kompaniyaga aylandik.

Shu kunga qadar viloyatda 1000 ga yaqin ko‘p qavatli, shu bilan birga, arzon va sifatli, energiyetamkor quyosh panellari o‘rnatilgan uy-joylarni qurishga muvaffaq bo‘ldik.

Sirdaryo viloyatida birinchi marta 4 qavatli zamonaviy savdo maishiy xizmat

ni aytadi. “Biz hatto o‘zimizning qo‘limizdagi tayyor mablag‘ni konvertatsiya qilib, narsa olib kirishimiz, loyihamizni amalga oshirishimizni yillab kutib qolganmiz. Natija berishi, minglab ish o‘rni yaratilishi mumkin bo‘lgan loyihalar shunchaki qog‘ozlarda qolib ketayotgan. Bugun bizda qanday yangi loyiha borligi bilan tegishli tashkilotlar qiziqadi, ko‘mak va qo‘llab-quvvatlashga tayyor”, deydi.

Shu ma’noda, chindan ham biz oltin davrda yashayapmiz. Uch muhim faktorni ayt-sam: birinchi navbatda, tadbirkorlikka erkinlik berildi. Eng katta imtiyozlardan biri bu — qo‘shilgan qiymat solig‘ining tushirilishi. Shaxsan o‘z faoliyatimda soliq imtiyozlaridan bir yilda 1,5 milliard so‘m iqtisod qildik. Uchinchi faktor — rag‘bat. Davlatimiz kichkina mehnatimizni, harakatimizni e’tirof etyapti.

2022-yil kamtarona mehnatim yuksak baholandi, “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandim. 2023-yili esa Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasi bo‘ldim. Hozirgi kunda xorijiy tillarni mukammal o‘rganyapman. Maqsadim Sirdaryo viloyati, umuman, mamlakatimiz obodligiga oz bo‘lsa-da, o‘z hissamni qo‘shishdan iborat.

2022-yil kamtarona mehnatim yuksak baholandi, “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandim. 2023-yili esa Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasi bo‘ldim. Hozirgi kunda xorijiy tillarni mukammal o‘rganyapman.

Maqsadim Sirdaryo viloyati, umuman, mamlakatimiz obodligiga oz bo‘lsa-da, o‘z hissamni qo‘shishdan iborat.

BIZ MASLAHAT BERMAYMIZ,
BIZNES BOSHlashNI O‘RGATAMIZ

larni qamrab olgan “Unicorns SCO” startup tanlovi, “Ambassador”, “Biznes trenerlar”, “Yosh tadbirkorlar platformasi”, “O‘quv markazlar marafoni”, “ABC Weekend”, “Xalqaro Debat chempionati”, “Hackathon-StudentHack”, “Startup va investor”, “Yosh qahramon tadbirkor”, “Go global Uzbekistan”, “Selfmade”, “Bussiness book club”, “Startup tashabbuslari”, “Limonlar uchun millionlar”, “Startup school in Uzbek” va 50+ loyihalarini tashkil etdik.

yani qayerdan olasiz?”, deya savol berdim. Javob mutlaq kutilmagan edi: “Bunda sir yo‘q. Sir bitta: Vatanni sevish kerak!”. Bu formuladan tashqari davlatimiz rahbari o‘z hayotida qo‘llaydigan ko‘plab formulalarni aytadi. Masalan, inson faoliyat olib borayotgan mashg‘ulotini sevishi, undan zavqlanishi natijaga erishishda muhim omil ekanini ta’kidladi.

Bu men uchun katta motivatsiya bo‘ldi. Hayotimda ko‘p narsalar o‘zgardi. Muhi-

agentligi bilan hamkorlikda “Tadbirkor” nomli kitob yaratildi va 10 ming nusxada nashr etildi. Bu o‘quvchilarning bilim va ko‘nikma olishiga katta ko‘mak beradi.

Yana bir maqsadimizni amalga oshirishga erishdik. Biz Markaziy Osiyo sun‘iy intellekt assotsiatsiyasini tashkil etishni rejalashtirgandik. Sun‘iy intellekt sohasida taniqli tadbirkorlar, ekspertlar, soha mutaxassislardan iborat 12 kishilik jamoa tuzib, assotsiatsiyani tashkil etishga erishdik. Assotsiatsiya maqsadi respublikamiz va Markaziy Osiyoda sun‘iy intellekt sohasini rivojlantirish, yoshlarning startup loyihalarini qo‘llab-quvvatlash hamda yurtimizda ta’lim, sog‘liqni saqlash, sud, bank tizimi, ilm-fan, davlat tashkilotlari, energetika, logistika, savdo-sotiq, agro sohalarga sun‘iy intellektni joriy qilish, shu orqali sohalaridagi mavjud muammolarni bartaraf qilishdan iborat.

Mamlakatimizdagi yosh tadbirkorlar oldida ayrim muammolar ham bor. O‘z ishini boshlayotgan, ayrim hollarda boshlagan tadbirkorlar ham pulni qayerdan olishini bilmaydi. Qaysi bank, xalqaro yoki mahalliy tashkilotlar grant, imtiyozli kredit, ijtimoiy buyurtma ajratayotgani haqida ma’lumot olishga qiynaladi. Bu borada bilim va professional maslahatga ehtiyoj seziladi.

Biz mazkur muammoga “Yosh tadbirkorlar platformasi” (www.yosh.tadbirkor.uz) innovatsion platformasi bilan yechim taklif qilamiz. Masalan, sizga pul kerak. “Yosh tadbirkorlar platformasi”da “PUL” degan tugma bosiladi va maxsus xaritada qayerda xalqaro tashkilot yoki davlat, nodavlat tashkilotlari, xususiy kompaniyalar tomonidan investitsiya va grantlar, ijtimoiy buyurtmalar ajratilishi haqida ma’lumotlar ko‘rsatiladi, reytingi belgilanadi.

Bu yil — bizning yilimiz. Quvonarlisi, mamlakatimizda shaxsan Prezidentimiz yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlayapti, tadbirkorlarni xalqimizning qahramoni va lokomotivi sifatida e’tirof etyapti. Bundan tashqari, O‘zbekiston dunyoda eng tez biznes ochmoqchi bo‘lganlar uchun qulay mamlakat sanaladi. Tadbirkorlik firmasini tashkilot tashkiloti yoki davlat, nodavlat tashkilotlari, xususiy kompaniyalar tomonidan investitsiya va grantlar, ijtimoiy buyurtmalar ajratilishi haqida ma’lumotlar ko‘rsatiladi, reytingi belgilanadi.

mi, faoliyatim davomida kuch beradigan ishonchga aylandi.

Bugun markazimizda o‘qib, loyihalarimizda faol ishtirok etib, o‘z tadbirkorligini yo‘lga qo‘ygan yuzlab yoshlar bor. Ayniqsa, “Modme” loyihasining yarialishi bizni juda quvontirdi. Jahongir Po‘latov va Ruslan Yo‘ldoshev hamkorlikda olib borayotgan mazkur loyiha o‘quv markazlarini tizimlashga, avtomatizatsiya qilishga qaratilgan. Nafaqat O‘zbekistonda, balki Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ham o‘z yo‘lini topmoqda. Quvonarlisi, yigitlar loyiha orqali mamlakatimizga investitsiya jalb qilayotir.

“Bir yigitga qirg‘un oz” degan maqol bor. Ko‘plab sohalarida tajriba qilishga, bilim olishga, o‘qish va o‘rganishga rag‘bat insonda hamisha bo‘ladi. Buni amalga oshirish, harakat qilish kerak, xolos. Tadbirkorlik sohasida



Markazimiz o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tgan. Asosan, o‘z biznesini tashkil etishni, rivojlantirishni va startapiga investitsiya jalb qilish va jahon bozoriga chiqishni maqsad qilgan yoshlar bilan ishlaymiz. Faoliyatimiz davomida o‘z biznesini ochmoqchi bo‘lgan ko‘plab yoshlarni saralab olib, ularning shu yo‘nalish bo‘yicha bilim va malakasini oshirishga asosiy e’tiborni qaratamiz. Ayni paytda yoshlarning biznes loyihalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlaymiz. Bu qo‘llab-quvvatlash biznes ta’lim, maslahat, ssuda, investitsiya, grant ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Masalan, shu kunga qadar yuz minglab yoshlarga biznes treninglar tashkil etdik, 10 mingga yaqin yoshga professional biznes ta’lim berdik va 300 ga yaqin yoshning biznes va startup loyihalariga investitsiya, grant mablag‘lari

AYOL EKANIM JAMIYATDA O‘Z O‘RNINI
TOPISHIMGA XALAQIT QILMAYDI

Surayyo XO‘JAMQULOVA,
“Siren” brendi asoschisi:



an’anasi bo‘yicha tikuvchilik sirlarini o‘rgandim. Ustozim Dilso‘z opa bag‘rikeng, hijjalab tushutdim o‘rgatishdan erinmaydigan ayol. Haligacha u kishining maslahatini olaman.

Menda poydevor bo‘lgani uchun mahoratimni oshirish qiyin kechmadi. So‘ng Toshkent shahrida malaka oshirdim. 3 oy o‘qish katta tajriba maktabi bo‘ldi.

Bir ishini boshlasangiz, ishingizdan rohatlansangiz, u sizni yangi maqsadlar tomon ruhlatiradi. Hatto dunyoqarashingiz kengayadi, fikrlaringiz teranlashadi. O‘quv markazidagi tajribam bilan “Gulistonda ham shunaqa dizaynerlik maktabi ochsam bo‘larkan”, deb o‘yladim. Meni tikuvchilikka qiziqtirgan ilk ustozim — onam Nurxon Erqo‘ziyeva. O‘zi tikuvchi bo‘lmasda, tikuvchilikka mehri baland. Fikrimni ayt-sam, qo‘llab-quvvatladi.

Ayol kishining jamiyatda o‘z o‘rnini topishda oilaning, xususan, turmush o‘rtog‘ining hisssasi juda muhim. Shu ma’noda, ayol ekanim mening jamiyatda o‘z o‘rnimni topishimga, rivojlanishimga xalaqit bermaydi. Shunday kunlar bo‘ldiki, men ikki farzandimni qaynonam va turmush o‘rtog‘imga qoldirib poytaxtda o‘qidim. Yo‘ldan qaytmog‘chi bo‘lsam, ruhlatirishdi. Bu hunar mening kelajagim ekanini aytib, rag‘batlantirishdi.

Shu tariqa “Siren” o‘quv markazi va ishlab chiqarish korxonasi faoliyatini yo‘lga qo‘ydik. Bu bir ayol uchun oson emas, biroq yaqinlarimning, davlatimizning ko‘magi bilan buni ulyday oldim.

Bugun nafaqat o‘zbekistonlik, balki Qirg‘iziston va Tojikistondan kelgan o‘quvchilarni ham maktabimizda hunar o‘rganyapti. Qo‘shni davlatlardan buyurtmalar kelyapti. 10 nafar xotin o‘zimiz o‘qitib, ishda olib qoldik. O‘nlab xotin-qizlar o‘z tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ydi.

“Siren” brend sifatida yurtimizda ommalashyapti. 2023-yil biz uchun omadli keldi. “Besh tashabbus olimpiadasi”da faol ishtirok etib, respublika bosqichida g‘olib bo‘ldik va 75 million so‘m pul mukofotini qo‘lga kiritdik. Bu tadbirkorligini boshlagan yosh bir ayolga katta rag‘bat.

2024-yildan umidlarim ko‘p. Eng avvalo, chekka tumanlarda o‘qishga sharoiti bo‘lmagan xotin-qizlar uchun dizaynerlik maktabimizning filiallarini ochmoqchimiz. Bu orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi, o‘nlab xotin-qizlarning o‘ziga ishonchi ortib, oilasiga qo‘shimcha daromad keltiradi.

Bundan tashqari, tojikistonlik shogirdimiz o‘z hududida ham markazimiz filialini ochishni va mahsulotlarimiz savdosini yo‘lga qo‘yishni rejalashtiryapti. Bu ham ish hajmining samarali bo‘lishiga olib keladi.

Sahifani “Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Bashkort YUNUSOVA tayyorladi.



Madaniy meros

BUYUKLARNING RUHI doimo UYG'OOQ

Uy-muzeylar ziyoratida ham buni teran his qilmog'imiz kerak

Munajat MO'MINOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Ayni paytda mamlakatimizda jami 150 ta muzey faoliyat ko'rsatadi, ularning 20 dan ziyodi uy-muzeylar. Bugun ushbu maskanlarni ham madaniy merosimiz sifatida asrash, keyingi avlodga boricha yetkazish mas'uliyati haqida so'z yuritmoqchimiz. Ko'z bilan ko'rilgan voqeikni qalban his qilish mumkin, shu bois, uy-muzeylarga tashrif buyurish ayni muddaodir.

FURSAT G'ANIMATDIR...

Muqimiy teatri binosi devori bo'ylab mehmonnavoz G'afur G'ulom yashagan xonadonga qadam qo'yar ekanmiz, hovli to'rida kulib o'tirgan shoirming ramziy siymosi uning o'zi kabi lutf ila “ichkariga kiringlar” deyayotgandek bo'ladi. Shoir yashagan uy qanday bo'lsa, shundayligicha saqlangani o'sha zamon arxitekturasining o'ziga xosligidan so'zlaydi.

Bolalar yotoqxonasi, ko'rpachalar yig'ib qo'yilgan mehrob va unga tutilgan parda o'sha davr o'zbek xonadonlarini eslatib turibdi. Katta va kichik ijodxonalar, mahalliy mehmonlar uchun milliy, chet ellik, nozik mehmonlar uchun o'sha davrga xos zamonaviy ruhdagi mehmonxonada turib, shoir tirik paytlar bu fayzli hovlining mehmoni bo'lgan, tulari ijodiy gurgunlar qilgan do'stlariga havasimiz keladi.

Shoyi ko'rpachalaru xontaxtasiga dutor qo'yilgan shinan xonada shoir bilan hamsuhbat bo'lgandek quvonamiz. Stol-stullar tartib bilan qo'yilgan ikkinchi mehmonxona hatto chel ellik ijodkorlar ham bu xonadonga bejiz bog'lanib qolganlarni aytib turibdi. Shaxsiy kutubxonadagi son-sanoqsiz kitoblarning barini o'qishga G'afur G'ulom qanday ulgurangani esa aqlga sig'irish qiyin.

1983-yilda ochilgan bu memorial muzey ham, 2004-yilda ish boshlagan ekspozitsiyalar zali ham 2 qavatli. Ko'rgazma zalida shoirming bolaligi, o'smirligi o'tgan XX asr boshlaridagi Toshkent tasviri, eski shahar manzaralaridan tortib, umrining so'ngiga qadar bo'lgan voqeiliklar aks etgan. G'afur G'ulom savod chiqargan o'sha davr maktablarining ko'rinishi, o'quv qurollari, bo'yralar bugungi o'quvchiga, ilmi tolibga qiziq, albatta. Ota-onasidan qolgan buyuk allomalarning kitoblari G'afur G'ulomdek insonni yetkazib berishga xizmat qilgani bilan ham qadrli. Mis ko'za, laganlar, moyjuvoz kabi ro'zg'or buyumlari butun oilaning kuniga yaragan bo'lsa, siyohdon, kuldon, telefon, yozuv mashinkasi, asosan, G'afur G'ulomga asqatgan. Dunyo yangiliklaridan xabardor qilib turgan radiopriyomnik esa ko'plab she'rlari yaralishiga ham sababchi bo'lgandir, balki. Adib yashagan uyning shinaimgina maketi — ramziy xona ekspozitsion zalning bir burchagidan o'rin

olgan. Uning vassajufli shifiti, taxmonga yig'ilgan ko'rpachalar, cho'g' solib ishlatilgan dazmol, qo'yingki, barchasi ko'p farzandli oilaning el qatori kun kechirganini ko'rsatib turadi.

Ekspozitsiyalarga nazar solar ekansiz, G'afur G'ulomning ilmiy faoliyatiga doir ma'lumotlar uning chindan-da birinchilardan bo'lib akademik unvoniga munosib bo'lganini ko'rsatadi. 60-yillik yubileyi tantanalari aks etgan fotosuratlar esa hukumatning shoirga bo'lgan yuksak hurmatini tarixga muhrlagan. Turkman, qozoq ijodkorlari sovg'a qilgan milliy kiyimlar nafaqat millatimiz, balki ko'plab xalqlarning G'afur G'ulomga nisbatan samimiy mehriini ifodalab turibdi. Chet el nashrlarida u haqida chop etilgan maqolalarni ko'rib, yana bir karra faxrlanasiz. Adibning o'zbek tarjimachiligiga qo'shgan mehnati saralari bizlarmiz degandek, Shekspiring “Otello”, “Qiroli Lir”, Nozim Hikmatning “Bir sevgi afsonasi” asarlari oyna ortidan qarab turadi.

Haykaltarosh Rayhon Shoabdurasulova “Shum bola” asariga ishlagan haykal — Qoravoyning tandirdan chiqib turgan holati asarga ishlangan filmni yodga soladi. Urush yillarida yozilgan she'rlar, yetimlik iztiroblari aks etgan suratlarining barchasi bizni va ertamiz egalarini G'afur G'ulomga yaqinlashtiradi. Shu ma'noda, muzeylar chinakamiga tirik tarix, ulug'vor maskan, madaniyat, ma'naviyat o'chog'i ekanini yana bir bor tushunib yetamiz.

Dastlab ekspozitsion qismga sayohat qilgan har qanday kishi memorial muzey tomonga o'tmay iloji yo'q. Muzey 2 ta binoda bo'lgani sabab bu borada bir oz qiyinchilik tug'ilayotganiga guvoh bo'ldik. Negaki, xodimlar kamligi bois, ko'rgazma zalidagi kuzatuvchi mehmonlarni memorial qismga ham o'zi olib o'tishi kerak bo'ladi. Aslida esa har ikki tomonda tanishtiruvchi, kuzatuvchilar alohida bo'lsa, yanada maqsadga muvofiq bo'lardi, eng muhimi, xodimlarning ham, keluvchilarning ham vaqti tejalandi.

Zero, G'afur G'ulomning o'zi aytganidek, Fursat g'animatdir shoh satrlar-la, Bezamoq chog'idir umr daftarin.

“VAZIFAMIZ —
BIZ UCHUN SHARAF”

Yakkasaroy tumanining Rakatboshi mahallasida joylashgan Yunus Rajabiy uy-muzeysiga yurtimizning turli hududlariga mansub ziyoratchilardan tashqari Yunus Rajabiy nomidagi milliy musiqa san'ati instituti, san'at oliygohlari talabalari, musiqa maktablari o'quvchilari, san'at ixlosmandlari tez-tez kelib turadi. San'atkorning farzandi Hasan Rajabiyning xotirlashicha, shu ko'chadan Abdulla Qahhor uy-muzeysini tashkil etishi masalasida o'tib borayotgan mahal o'sha paytdagi Yozuvchilar uyushmasining raisi O'lmas Umarbekov “Mana shu yuni ham muzey qilish kerak”, deya bir guruh yozuvchilar e'tiborini Yunus Rajabiy xonadoniga qaratgan ekan. Shu gap turki bo'lib, 1997-yilda ochilgan bu uy-muzeysida milliy musiqamiz darg'asi, akademik Yunus Rajabiy umrining so'nggi 20 yilini yashab, ijod etgan. 20 dan ortiq musiqali drama, 200 dan ziyod betakror kuy va qo'shiqlar, simfonik asarlar muallifining uy-muzeysiga kirsangiz, XX asrning 50-yillariga tushib qolgandek bo'lasiz. Bu yerdagi 7 mingga yaqin eksponat orasida Yunus Rajabiyning shaxsiy buyumlari, hunarmandlik namunalari, shogirdlari va musiqa ixlosmandlarining ko'plab sovg'alari, hukumat tomonidan berilgan yuksak orden va medallar bor.

Bir paytlar Yunus Rajabiy chuchvara go'shtini hafsala bilan atayin o'zi to'g'rab bergan chog'roqqina oshxona ham o'sha davrlarga xos

setor musiqa asbobi alohida ko'zga tashlanadi. Devorda osig'liq ustoz va shogird shajarasi ijodiy shajara jarayonlariga qiziqqan talabalar uchun ayni muddaodir. 70 yoshli yubileyida Qori Niyoziy, Abdulla Qahhor bilan birga tushgan suratlar, san'atkor chalgan pianino, 500

fotoportretlari, muzeyga keltirilgan noyob ashyolar jamlanadi. Bebaho ijrolarini yozib olish studiyasi va apparaturalarini avaylash uchun ham muzeyga yanada ko'proq e'tibor qaratilsa, milliy musiqamiz rivojiga hali necha yuz yillar xizmat qiladi.



dan ortiq ashulani jamlagan gramplastinkalar adabiyotimiz, mumtoz musiqamiz bilan bog'liq shirin xotiralarni uyg'otib yuboradi.

Ikkinchi qavatga chiqish uchun zinadan ko'tarilar ekansiz, devorga o'matilgan katta pannoga ko'zingiz tushadi. San'atkor tavalludining 100-yilligiga sovg'a tariqasida O'zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzayev chizgan bu pannoda Alisher Navoiy, Bobur, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To'ychi

KELUVCHILAR QANCHA KO'PAYSA,
ULAR SHUNCHA XURSAND

Poytaxtimizdagi “Malika” savdo majmuidan salgina o'tib, Usta Shirin ko'chasiga kelib olsangiz, Oybekning uy-muzeysini topish qiyin bo'lmaydi. Negaki, barcha muzeylarga qo'yilgani kabi ishoralarining o'zi sizni to'g'ri — yozuvchining Iftixor ko'chasidagi ikki qavatli uyiga boshlab boradi. Boloxonali pastakroq yog'och darvozadan kirib borishingiz bilan chap qo'lda ekspozitsion, ro'parada memorial muzeyga ko'zingiz tushadi. Har ikkala bino ostonasidagi zinalar ko'chib, devorlarning rangi o'chib qolgan bo'lsa-da, Oybek va Zarifa Saidnosirovaga baxt ato etgan bu hovlining istarasi hamon issiq. Muzeining memorial qismida bir asar ustida ishlanayotgani uchun subhatimizni ekspozitsion tomonda olib bordik. Biroq muzey ilmiy xodimi Gulchehra Shokirova bilan muloqot chog'i 6 xonadan iborat memorial qismdagi fondada yangi uskunalariga ehtiyoj katta ekanini angladik. Zero, fondni bir xil haroratda ushlab turish, kamida 70-80 yillik eksponatlarni juda ehtiyoqlar saqlash kerak.

Oybek hovliga qarab ijod qilgan ochiq ayvondan ichkari tomon yurilsa, o'ng qo'lda shinaimgina xona ko'zga tashlanadi. Xona birinchi o'zbek kimyogar olimasi Zarifa Saidnosirova va uning otasi Saidnosir Mirjalilovni esga soluvchi rasm, hujjat, buyumlar, Zarifaxonim chizgan tabiat manzaralari bilan fayzli.

Keyingi xonalardagi Oybek yashagan Shayxontohur muhitini aks ettiruvchi suratlar, adib tug'ilgan Govkush mahallasi tasviri xayolningizda “Bolalik” asarini jonlantiradi. Bu yerda ham yozuvchining oilasiga xizmat qilgan uy-ro'zg'or buyumlariga qiziqib qaraymiz. Oila a'zolari, yaqinlari suratlar toboru yozuvchining oilasi bilan yaqinlashtiradi.

“Qutlug' qon”, “Navoiy” romanlari tarixiga bag'ishlangan xonalar, g'oyat tahlikali bir paytda yozilgan “Qutlug' qon”ning qo'lyozmasi yirik asar ustida ishlashning nechog'liq mashaqqat ekanini izohlashga so'z qoldirmaydi.

Oybekning surati tushirilgan, hatto she'rlari bitilgan turli xil idishlar bir paytlar kimlardir yuziga qora chaplagan adib ijodining chinakam muxlislari, ishtiyoqmandlari ko'pligidan dalolat beradi.

O'ttiz besh yildan buyon shu dargohda ishlayotgan, har kuni etyal kelib, Oybek domlaga salom berishga odatlanib qolgan uy-muzey ilmiy xodimi Gulchehra opa bilan subhatlashish jarayonida bir narsadan juda xursand bo'ldik. Davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan Adilbar xiyobonida haykallari o'matilgan ijodkorlar hayoti va ijodini o'rganish oliygohlarga biriktirilgan qo'yilgani ushbu muzey hayotida ham muhim omil bo'layotgan ekan.

— Avval o'qituvchilar, talabalarning tashrifi burchalik ko'p bo'lmas edi, — deydi Gulchehra opa. — Oybek hayoti va ijodini keng o'rganish Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat

institutiga topshirilgach, o'qituvchilaru talabalar bu yerga tez-tez kelib, seminarlar, tadbirlar o'tkazadigan bo'ldi. Nomdor stipendiyaga loyiq ko'rilgan talabalar ilmiy ishlar olib boryapti. Ular uchun hamisha eshigimiz ochiq. Qolaversa, Oybek hayoti va ijodi bilan bog'liq har qanday tadbirga bajonidil hovlimizdan joy berishga tayyormiz.

Opaning gaplaridan xursand bo'ldik. Adib o'z qo'li bilan ekan ulug'vor archaga bahslashib o'sayotgan hovlidagi boshqa daraxtlar, anvoyi gullar, ayniqsa, bahor payti uning ko'rkiga ko'rk qo'shishini tasavvur qildik. Ijodkorning chet ellik ixlosmandlari-da kelib turadigan bu qutlug' dargohga ham, aslida, bir chimdim mehr va e'tibor kifoya.

UY-MUZEYLAR TARIXNING
BIR PARCHASI

— Men muzeyshunos emasman, ammo ikki yil davomida bir necha uy-muzeylarda bo'lib, ular faoliyati, shart-sharoiti bilan tanishib, rahbar va xodimlari bilan muloqotda bo'lib, bu boradagi fikrlarimni “Yangi O'zbekiston” gazetasi orqali mutasaddilarga yetkazishni lozim topdim, — deydi jurnalist Nuriddin Ochilov.

Hamkasbimiz Abdulla Qahhor uy-muzeysini misolida yutuqlar bilan birga tizimdagi muammolarni ham tilga oladi.

— Abdulla Qahhor uy-muzeysida bir qarashda hamma narsa risoladagidek. Ikki qavatli uydin iborat mo'jazzgina hovli shinan, toza-ozoda. Bahordan kech kuzgacha atirgul va rayhonlar ko'zingizni yashnatadi. Qulochlarini to'rt tomonga yozgan katta xurmo daraxti qiyg'os gullash, hovliga o'zgacha bir chiroy baxsh etganidan dilingiz yayraydi. Direktor va xodimlarning samimiy, xushmuomala, kamtar va ishchanligini ko'rib, yoshlardan iborat bu ahl jamoaga havasim keladi, muloqotlarimizdan xursand bo'laman. Ikki yil davomida na direktordan, na xodimlardan biron-bir shikoyat yoki no'lish eshitmadim. Nazarimda ular yetar-yetmaslik haqida so'z ochishdan uyalar, bunday fikr xayollariga ham kelmas edi, chog'i. Eshitishiga qaraganda, muzeyni ta'mirlash va bir donagina kompyuterga ta'mirlash uchun tegishli tashkilotlarga iltimos xatlari yozilib, taqillatilmagan eshik qolmabdi. O'zim adib uy-muzeysini ta'mirlatish uchun ikki yil yugurib, nihoyat niyatimga yetganimda, direktorga oson emasligini chuqurroq his qildim.

Yaxshiyamki poytaxtda yigirma-o'ttizta emas, bor-yo'g'i o'n bitta uy-muzey bor. Shularni ko'rsa ko'rgudek qilib, ichki turizm “Yo'l xaritasi”ga kiritilsa, zarar bo'ladimi? Axir uy-muzeylar ham ilm, ma'naviyat va ma'rifat maskanlari-ku! Nega ularni ko'rib ko'rmaganlikka, bilib-bilmaganlikka olamiz? Bundan kimga foydayu kimga zarar? Yoki ular “madaniy meros”ning qoligiga sig'maydimi? Balki “Og'rimagan boshimni og'ritib nima qilaman”, degan ayrim mutasaddilarga uy-muzey tarixning bir parchasi, qadriyat, ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i, ilmiy maskan ekanini, yoshlarimizni o'z xalqining mashhur kishilari hayoti va el-yurt ravnaqi yo'lidagi olijanob ishlari bilan yaqindan tanishtirishda, tariximiz va qadriyatlarimizning ma'lum bir qirralarini yodga solib turguvchi qutlug' bir dargohligini yotig'i bilan tushuntirmoq kerakdir?!

Shuningdek, uy-muzeylar (ayniqsa, ekskursovodlar) xodimlarining malakasini (bilimdonligini) muntazam oshirib borish lozim. Agar tanishtiruvchilar o'tlab ketsa, (shunaqasi ham bor) bilingim, u bugun bo'lmasa, ertaga bizni uyalitirib qo'yishi hech gap emas. Uy-muzeylardagi ish ko'lamini talab toboru ortib borayotgan bir paytda xodimlar soni ham shunga muvofiq bo'lsa, ishlarning sifat va samarasi ortmay qolmaydi.

Uy-muzeylar millatimiz buyuklarining namunali hayoti, ibratli faoliyati timsoli. Shu ma'noda, ayni kunlarda ular bilan bog'liq masalalar yechimiga kirishilgani quvonarli. O'ylaymizki, bu boradagi xayrli ishlar yaqin kelajakda uy-muzeylarda ishlashni orzu qiladigan fidoyi yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-91.

8843 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug'murodov
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 22:00 Topshirildi — 22:05